


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA KAFEDRASI



AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA  
MODULNING ISHCHI O'QUV DASTURI  
(4-KURS)

|                    |         |                       |
|--------------------|---------|-----------------------|
| Ta'lim sohasi:     | 510 000 | – Sog'liqni saqlash   |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5510100 | – Davolash ishi       |
|                    | 5111000 | – Professional ta'lim |

Toshkent – 2023 -y.

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 04.06.2021-yildagi 121-sonli buyrug'ining (buyruqning 1-ilovasi) bilan tasdiqlangan "AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA" modul dasturi asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchilar:**

- F.I. Shukurov – TTA, " Akusherlik va ginekologiya" kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- N.S. Razzakova – TTA, " Akusherlik va ginekologiya" kafedrası assistenti.
- N.M. Gaipova – TTA, " Akusherlik va ginekologiya" kafedrası assistenti.

**Taqrizchilar:**

**Ichki taqrizchi:**


- G.S.Babadjanova – TTA, "1-sonli akusherlik va ginekologiya" kafedrası professori, t.f.d.

**Tashqi taqrizchi:**


- B.B.Kurbanov – TPTI, " Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi" kafedrası dotsenti, t.f.d.

Modulning ishchi o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashida muhokama etilgan va tasdiqlangan (20 \_\_\_\_ yil \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ - sonli bayonnoma)


Kafedrası mudiri

 F.I. Shukurov

2- davolash fakulteti dekani

 A.A. Inazarov

O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i

 F.X. Azizova

## **1. O‘quv modulining dolzarbligi va oliy ta’limdagi o‘rni**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayonida qo‘llagan holda, talabani nazariy ma’lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni fantomlarda bajarishga o‘rgatib va orttirilgan ko‘nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga imkon yaratadi

## **2. O‘quv modulining maqsadi va vazifalari**

**2.1. Modulning maqsadi** – Akusherlik va ginekologiya fanini o‘qitishdan maqsad - bo‘lajak umumiy amaliyot shifokori malakaviy tasnifiga asoslanib, talabalarga avvalgi bosqichlarda olgan bilimlariga tayangan holda, akusherlik va ginekologiyadan, dalillarga asoslanib, fiziologik va asoratlanib kechayotgan homiladorlikda samarali perinatal yordam tamoyillariga, normal va patologik tug‘ruq va chilla davrini olib borish, chaqaloqlarni parvarishlash, akusherlik va ginekologiya amaliyotlarida ko‘p uchrab turadigan shoshilinch holatlarda, tashxislash, mustaqil ravishda birlamchi yordam ko‘rsatish va oldini olish usullarini o‘rgatish.

### **2. Modulning vazifalari:**

- talabalarda “Akusherlik va ginekologiya” faniga bo‘lgan muhabbat va qiziqishni uyg‘otish;
- talabalarda ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalar tomonidan klinik tadqiqotlar natijalarini amaliyotda qo‘llash va mustaqil qaror qabul qilish mas’uliyatini tarbiyalash;
- talabalarining nazariy ma’lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni bajarish darajasiga qadamma-qadam o‘rgatish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tadbiiq etib, talabani klinik fikrlash va bilimni saqlash darajasini oshirish;
- zamonaviy tekshirish usullari xakida tushunchaga ega bo‘lish;
- ayol jinsiy a‘zolarini klinik anatomiyasi, tekshirish usullarini va faoliyatlarini aniqlashni o‘rgatish;
- talabaning klinik fikrlash qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko‘nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga etkazish;
- turli yosh guruhidagi, fiziologik va somatik kasalliklari bo‘lgan xomilador va tuqqan ayollarga to‘g‘ri ratsional ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilishni o‘rgatish;

- fiziologik, asoratlangan va ekstragenital kasalligi bilan homiladorlarni va fiziologik tugʻruq va chilla davrni olib borish, akusherlik va perinatal patologiyali xavf omillarini aniqlashni oʻrgatish;

- asoratli kechayotgan va ekstragenital patologiyali homiladorlarni muddatlarini va hospitalizatsiya mezonlarini oʻrgatish;

- tashxislashni, shoshilinch yordam koʻrsatishni, bemorlarni boshqa muassasalarga xavfsiz va oʻz vaqtida yuborishni oʻrgatish;

- akusherlik kasalliklarni davolash, tashxislash va dispanserizatsiyalash koʻnikmalarini ishlab chiqish, kontrasepsiyaning barcha usullari boʻyicha maslahat berish bilimlarini, sogʻlom oila va bexatar onalik chora va tadbirlarini olib borish koʻnikmalarini ishlab chiqish va bilimlarini shakllantirish;

Fan boʻyicha talabalarning bilim koʻnikma va malakalariga quyidagi talablar qoʻyiladi.

### ***2.3. Modul boʻyicha talabalarning bilim, koʻnikma va malakalariga qoʻyiladigan talablar:***

#### **3 semestr yakunida**

#### **3 kredit**

#### **Talaba:**

- fiziologik kechayotgan va asoratlanmagan somatik kasalligi bilan homiladorlik, tugʻruq, chilla davrlarining kechishi xususiyatlari, homila holatini baholash, ambulator davolash samaradorligini baholash va reabilitatsiya chora-tadbirlarini oʻtkazish toʻgʻrisida;
- bexatar onalik tamoyillari, samarali perinatal yordam, homiladorlar va chaqaloqlar parvarishi;
- sheriklik tugʻruq, partogrammani qoʻllash, tugʻruqning uchinchi davrini faol olib borish;
- koʻkrak bilan boqishning 10ta tamoyillari toʻgʻrisida, chilla davrida parvarish va kontrasepsiya;
- homiladorlikda koʻp uchraydigan: homiladorlik davridagi gipertenziv holatlari, homiladorlik kechki muddatlaridagi qon ketishlar, normal joylashgan yoʻldoshning barvaqt koʻchishi (NJYBK) va yoʻldoshning oldinda joylashishi (YOJ), homiladorlikning muddatidan oldin toʻxtashi va muddatidan oʻtib ketishi, homilaning chanogʻi bilan kelishi, homilaning notoʻgʻri joylashishi va yotishi, rezus-immunizatsiyali homiladorlik etiopatogenezi, kliniksi va tashxislash haqida tushuncha;
- patologik tugʻruq akti, tugʻruq kuchlari nuqsonlari, tugʻruqdan keyingi qindan qon ketishlar (bachadon atoniyasi, tugʻruq yoʻllari yumshoq toʻqimalari va oraliq yirtilishlari, yoʻldosh ajralishining ushlanib qolishi yoki yoʻldosh boʻlaklarining qolib ketishi, bachadonning agʻdarilishi, gemorragik shok, disseminirlashgan tomir ichida qon ivish sindromi (DTQIS), etiologiyasi,

- patogenezi, klinikasi va tashxislash to‘g‘risida;
- homiladorlik va chilla davri infeksiyalari to‘g‘risida;
- asosiy akusherlik kasalliklarni tashxislash, klinikasi, homiladorlarni statsionar va ambulator davolash mezonlari;
- homiladorlarni laborator va instrumental usullardan foydalangan holda klinik ko‘rikdan o‘tkazish, ona va bola uchun havf omilini aniqlash va profilaktik choralarni qo‘llash;
- kontraseptivlarni individual tanlashda maslahat berish, statsionargacha bosqichda shoshilinch tez yordamni ko‘rsatish **haqida tasavvurga ega bo‘lishi:**

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

- homiladorlarda maqsadga yo‘naltirilgan anamnez yig‘ish va klinik tekshiruv o‘tkazish;
- fiziologik va asoratlanmagan somatik kasalligi bilan homiladorlarni va fiziologik chilla davr olib borish, homila holatini baholash, ambulator davolash effektivligini baholash va rehabilitatsiya choralarni o‘tkazish;
- homiladorlikni tashxislash;
- homiladorlik va tug‘ruq muddatlarini aniqlash;
- homila vaznini aniqlash; gravidogrammani to‘ldirish;
- ona va homila uchun xavf guruhlarini aniqlash;
- stetoskopda homila yurak urishini eshitish;
- tug‘ruq va tug‘ruq davrlarini tashxislash; partogrammaning ahamiyati;
- tug‘ruqda asoratlarni aniqlash va kerakli shoshilinch yordam ko‘rsatish;
- dastlabki diagnozni qo‘yish va uni asoslash;
- yo‘ldoshni baholash;
- homiladorlarda gipertenziv sindromni tashxislash va uni og‘irlik darajasini baholash;
- homiladorlik asoratlari (preeklampsiya, normal joylashgan yo‘ldoshning barvaqt ko‘chishi, yo‘ldoshning oldinda joylashishi) da shoshilinch yordam ko‘rsatish;
- chaqaloqlarga birlamchi ishlov berish;
- asfiksiyada tug‘ilgan chaqaloqlarga birlamchi yordam ko‘rsatish. mastitning oldini olish;
- ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- Homiladorlar va tug‘uvchilarda tashqi akusherlik tekshiruvi usullari;
- Homilaning yurak urishini eshitish;
- Tug‘ruqning taxminiy muddatini aniqlash;
- Homila taxminiy vaznini aniqlash;
- Kindikni kesish va artib tozalash;
- Apgar shkalasida chaqaloqlar ahvolini baholash;
- Tug‘ruqning Sh davrini faol olib borish;
- Yo‘ldosh butunligini aniqlash;
- Yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlash;
- Og‘ir preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam ko‘rsatish *kabi*

*malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi;*

**Talaba quyidagi kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak:**

UK 1<sup>1</sup>. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1<sup>2</sup>. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil yetish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

## 1. Modul tuzilmasi

### 3.1.Modul yuklamasi va o'quv ishlar turlari

| Yo'nalishlar        | Semestr | Umumiy yuklama xajmi | Ma'ruza (soat) | Amaliy mashg'ulot (soat) | Laboratoriya mashg'uloti (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Nazorat turi va shakli                    | Kredit (xajmi) |
|---------------------|---------|----------------------|----------------|--------------------------|---------------------------------|------------------------|---|----------------|
| Davolash ishi       |         | 144                  | 18             | 32                       | 40                              | 54                     | <b>Nazorat turi: YaN<br/>shakli: Test</b> | 4,0            |
| Professional ta'lim |         |                      |                |                          |                                 |                        |   |                |

<sup>1</sup> UK- умумий компетенция

<sup>1</sup> UKK – умумий касбий компетенция

### 3.2. Ma'ruza mashg'ulotlari

| №                 | Ma'ruza mavzulari   | Soatlar hajmi | Egallanishi shart bo'lgan kompetensiyalar kodi |
|-------------------|---|---------------|--|
| <b>2-semestr:</b> |   |               |  |
| 1                 | Akusherlik fani. Akusherlik va perinatologiya rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari. Urug'lanish. Homila rivojlanishi bosqichlari. Yo'ldosh tuzilishi va faoliyati. Fiziologik tug'ruq. Tug'ruqning boshlanish sabablari va uning boshqarilishi. Tug'ruq davrlari klinikasi va biomexanizmi | 2             | UK 1.  |
| 2                 | Homiladorlik toksikozlari. Homiladorlikda ko'ngil aynish va qusish. Homiladorlikda gipertenziv sindrom  | 2             | UK 1.  |
| 3                 | Homiladorlikning muddatiga etmasligi. Homiladorlikning muddatidan o'tib ketishi   | 2             | UK 1.  |
| 4                 | Akusherlikda rezus-omil. Ona va bola o'rtasidagi immunologik nomutanosiblik. Homila va chaqaloqlarda gemolitik kasalligi  | 2             | UK 1.  |
| 5                 | Somatik kasalliklar va homiladorlik. Kamqonlik, siydik yo'li infeksiyalarida homiladorlik va tug'ruq  | 2             | UK 1.  |
| 6                 | Qoniqarsiz tug'ruq faoliyati  | 2             | UK 1.  |
| 7                 | Homiladorlikning kechki muddatlarida qindan qon ketishlar   | 2             | UK 1.  |
| 8                 | Tug'ruq vaqtida va tug'ruqdan keyingi qindan qon ketishlar  | 2             | UK 1.  |
| 9                 | Chilla davri infeksiyalari. Chilla davri septik kasalliklari. Akusherlik peritoniti   | 2             | UK 1.  |
| <b>JAMI:</b>      |   | <b>18</b>     |  |

*Ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish (shakli, turi, jihozlanishi va x.k.)* multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda akademik guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

### 3.3. Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarini tashkil etish

| № | Amaliy mashg'ulotlar mavzulari   | Soatlar hajmi |                            | Egallanishi shart bo'lgan amaliy ko'nikmalar (ro'yxatdagi raqami) | Egallanishi shart bo'lgan kompetentsiyalar (kodi) | O'quv uslubiy ta'minoti  |
|---|--|---------------|----------------------------|---|---|--|
|   |  | Nazariy       | Amaliy, laboratoriya mash. |   |   |  |
| 1 | Akusherlik va ginekologik statsionarining tuzilishi va ishini tashkil etish. Ayollar jinsiy a'zolarining klinik anatomiyasi. Tug'ruq yo'llari. Homilani tug'ruq ob'ekti sifatida o'rganish. Perinatal yordam asoslari. Homiladorlarni tekshirish usullari. Homiladorlik erta va kechki muddatlarida tashxislash.   | 2             | 4                          | 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10  | UK 1, UK 2, UK 3, UK 4, UKK 3, UKK 4,             | Videofilm-lar, multi-mediya va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan mavzular bo'yicha nazariy bilim-larni so'rash-dan foydalaniladi; bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar |
| 2 | Tug'ruq. Tug'ruq davrlari. Partogrammani olib borish. Tug'ruqning III davrini faol olib borish. Chaqaloqlar holatini Apgar shkalasida baholash. Ensa oldingi turida tug'ruq biomexanizmi. Chaqaloqlarni birlamchi ishlov berish. Fiziologik chilla davri. Chaqaloqlar fizilogik davri. Ko'krak bilan boqishning 10ta tamoyillari. Ko'krak bezlarini parvarishlash. |               | 4                          | 1,2,3,4,5,6   | UK 5, UK 6, UKK 5,                                |  |
| 3 | Homilaning chanog'i bilan kelishi. Tug'ruq biomexanizmi. Lovset va Moris-Smeyli-Veyta usullari. Homilani noto'g'ri holati, sabablari, tashxislash, shifokor taktikasi.   | 2             | 4                          | 3,4,5,6,7,9,10  | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6,                         |  |
| 4 | Homiladorlar ko'ngil aynishi va qusishi. Etiopatogenezi, tasnifi,  | 2             | 4                          | 3,4,5,6,7,8,9   | UK 5, UK 6, UKK 5,                                |  |



|    |   |   |   |             |                           |
|----|---|---|---|-------------|---------------------------|
|    | klinikasi, davolash tamoyillari.  |   |   |             | UKK 6,                    |
| 5  | Homiladorlik davridagi gipertenziv holatlar. Preeklampsiya, eklampsiya. Etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash tamoyillari.  | 2 | 2 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 6  | Buyrak kasalliklari va kamqonlikda homiladorlik, tugʻruq va chilla davrining kechishi. Simptomsiz bakteriuriya.   | 2 | 2 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 7  | Akusherlikda rezus omilning oʻrni. Homila va chaqaloqlar gemolitik kasalligi. Chaqaloqlar sariqligi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash tamoyillari.   |   | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 8  | Homiladorlik muddatiga etmasligi va muddatidan oʻtib ketishi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash. Tugʻruq induksiyasi. Homila qogʻanoq pardasining muddatidan oldin yorilishi.   |   | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 9  | Normal joylashgan yoʻldoshning barvaqt koʻchishi. Yuldoshning oldinda joylashishi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolash tamoyillari.   |   | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 10 | Tugʻruqda vaginal qon ketishlar: bachadon yorilishi. Tasnifi, etiologiyasi va patogenezi, klinikasi, tashxislash, davolash tamoyillari, oldini olish.   |   | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 11 | Tugʻruqdan keyingi qindan qon ketishlar (yoʻldosh birikishi nuqsonlari, bachadon gipo va atoniyasi, yoʻldosh qismlarining qolib ketishi, bachadon boʻyni va oraliq yirtilishlari) sabablari, Tashxislash, shifokor taktikasi va oldini olish choralari. |   | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |
| 12 | Qoniqarsiz tugʻruq faoliyati. Tasnifi. Turli tugʻruq faoliyati  | 2 | 2 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5,        |

|              |   |           |   |             |                           |  |
|--------------|---|-----------|---|-------------|---------------------------|--|
|              | nuqsonlari etiologiyasi, klinikasi va tashxislash. Akusherlik taktikasi va oldini olish.<br>Homila boshi va ona chanog'i disproporsiyasi. Yelkalar distotsiyasi. Kelib chiqish sabablari va klinik simptomlari. Ona va bola uchun asoratlar va ularni oldini olish. |           |   |             | UKK 6,                    |  |
| 13           | Tug'ruqni amalga oshiruvchi operatsiyalar: kesar kesish, akusherlik qisqichlari, vakuum ekstraksiya va homilani dumbasidan tortib olish   |           | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |  |
| 14           | Homilada shoshilinch holatlar va chaqaloqlarda muammolar. Chaqaloqlar reanimatsiyasi. Homilani ona qornida infitsirlanishi. Tashxislash, davolash va shoshilinch yordam.  | 2         | 2 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |  |
| 15           | Sepsis. Septik shok. Tasnifi, infeksiya tarqalish yo'llari, klinikasi, tashxislash, davolash tamoyillari, oldini olish.   | 2         | 2 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |  |
| 16           | Chilla davri infeksiyalari. Akusherlik peritoniti, sabablari, tashxislash, davolash.  | 2         | 4 | 3,4,5,6,7,9 | UK 5, UK 6, UKK 5, UKK 6, |  |
| <b>Jami:</b> |   | <b>18</b> |   |             | <b>54</b>                 |  |

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jixozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Amaliy mashg'ulotning klinik qismi mavzularga xos ravishda kasalxona bo'limlarida olib boriladi

### **3.4. Amaliy ko'nikmalar**

| №                | Amaliy ko'nikmalar nomi | Soni | Amaliy ko'nikmalarni bajarish uchun zarur ta'minot (jihozlanishi) |
|------------------|-------------------------|------|---|
| <b>3-semestr</b> |                         |      |   |

|   |   |   |  |
|---|---|---|--|
| 1 | Homiladorlar va tug‘uvchilarda tashqi akusherlik tekshiruv usullari | 2 | qo‘llanmalar, adabiyot, fotosuratlar, fantom, mulyaj, simulyatorlar, asbob-anjom, jadvallar, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, kompyuter dasturlari, klinik modullar uchun kechki navbatchiliklar, volontyorlik, simulyatsion markazlarda ishlash va h.k. |
| 2 | Tug‘ruqning taxminiy muddatini aniqlash                             | 2 |  |
| 3 | Homila taxminiy vaznini aniqlash                                    | 2 |  |
| 4 | Kindikni kesish va artib tozalash                                   | 2 |  |
| 5 | Apgar shkalasida chaqaloqlar ahvolini baholash                      | 2 |  |
| 6 | Tug‘ruqning Sh davrini faol olib borish                             | 2 |  |
| 7 | Yo‘ldosh butunligini aniqlash;                                      | 2 |  |
| 8 | Qorin aortasini bosish  | 2 |  |
| 9 | Og‘ir preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam ko‘rsatish   | 2 |  |

*Amaliy ko‘nikmalarni qadamma-qadam bajarilish algoritmi:*

| №                | Amaliy ko‘nikmalar  |
|------------------|---|
| <b>7-semestr</b> |   |
| 1.               | <p><b>Homiladorlar va tug‘uvchilarda tashqi akusherlik tekshiruv usuli:</b></p> <p><b>1.Maqsad:</b>Tashqi akusherlik tekshiruv xomiladorlik paytida xomila joylashishi, pozitsiyasini, ko‘rinishini va undan tashqari tug‘ruq jarayonida xomila boshining kichik chanoqni kaysi satxiga tushganligini aniklashga va tug‘ruq jaryonini boshqarishda yordam beradi</p> <p><b>2.Ko‘rsatma:</b> Xomiladorlik davri, tug‘ruk davri</p> <p><b>3.Kerakli jixozlar:</b> ZOE fantom, xomilador va tug‘uvchi ayollar</p> <p><b>4.Qadamlar:</b><br/>Ayolni chalqancha xolda yotqiziladi.<br/>Shifokor ayolni o‘ng tomonida turadi.</p> <p><b>1 – usul</b> ikkala qo‘lni kaft yuzalarini bachadon tubiga qo‘yiladi. Bu usul yordamida bachadon tubi balandligi va homilani qaysi qismi bachadon tubida borligi aniqlanadi</p> <p><b>2 – usul</b> qo‘llar bachadon tubidan kindik soxasiga,bachadonni o‘ng va chap tomonlariga qo‘yiladi. Qo‘l kaft va barmoqlari bilan bachadon yon devoriga bosib, paypaslab homilani orqasi va mayda qismlari qayoqqa qaragan, ya’ni homila pozitsiyasi anqlanadi. 1- pozitsiya homila orqasi bachadon devoriga qaragan bo‘ladi. 2- pozitsiyada homila orqasi o‘ng devoriga qaragan bo‘ladi</p> <p><b>3 – usul</b> qo‘lning katta barmog‘i bachadon pastki segmentining bir tomoni dan qolgan 4 ta barmoq esa ikkinchi tomonidan ushlab olinadi. homila oldinda kelgan qismi ushlanadi va sekin o‘ngga va chapga qimirdatiladi. Bu usul yordamida homila qaysi qismi bilan oldinda yotganligi aniqlanadi.</p> <p><b>4 – usul</b> tekshiruvchi ayolning oyoq tomonida turgan xolda ikkala quli kaftini bachadon paski qismining o‘ng va chap tomoniga qo‘yadi, pastga tomon asta</p> |

|           |   |
|-----------|---|
|           | <p>sekin bosadi, bunda tekshiruvchi o'z qulini homilaning oldinda keluvchi qismi bilan chanoq kirish qismiga yuboradi. Bu usul yordamida homila oldinda yotgan qismining chanoq suyagiga nisbatan turishini aniqlanadi.</p>   |
| <p>2.</p> | <p><b>Tug'ruq muddatini aniqlash</b></p> <p><b>1. Maqsad:</b> Xomiladorlik tug'ruk muddatini aniqlash</p> <p><b>2. Ko'rsatma:</b> barcha homilador ayollarda tekshirish usuli</p> <p><b>3. Kerakli jixozlar:</b> kalendar, almashinuv kartasi, santimetr tasma, xomilador ayol</p> <p><b>4. Qadamlar:</b></p> <p>Hayzni oxirgi kuni bo'yicha (Negele bo'yicha ): bu kundan 3 kalendar oyi chegirib tashlanib 7 kun qushiladi.</p> <p><b>Ovulatsiya bo'yicha:</b> oxirgi hayzni birinchi kuniga 14 kun qushiladi (taxminiy ovulyatsiya va urug'lanish vaqti va unga 280+7 kun qushiladi).</p> <p><b>Xomilani birinchi marta qimirlashiga qarab:</b> birinchi marotaba qimirlashini kuniga birinchi tug'uvchilarga 20 xafta qo'shiladi, qayta tug'uvchilarga 22 xafta qo'shiladi</p> <p><b>Birinchi marotaba shifokorga murojaat qilgan kuniga qarab:</b> homiladorlik erta muddatlarda bu kuniga 40 xaftaga etmayotgan haftalar qo'shiladi va tug'ruqni muddatini aniqlanadi.</p> <p><b>Ob'ektiv ko'ruvga asosan:</b> ko'ruv paytida homiladorlik muddatini aniqlanadi va 40 xaftaga etmayotgan xaftalar qo'shib . tug'ruq muddatini aniqlanadi.</p> <p><b>UTT bo'yicha:</b> UTT o'tkazilgan kundan hisoblangan hafta kundan aniqlanuvchi kungaga hisoblanadi.</p> |
| <p>3.</p> | <p><b>Homila taxminiy vaznini aniqlash:</b></p> <p><b>1. Maqsad:</b> Xomilaning taxminiy vaznini baxolab, tug'ruk kaysi yul bilan olib borilishini aniqlash</p> <p><b>2. Ko'rsatma:</b> Xomiladorlik davr, tug'ruk davrlarida</p> <p><b>3. Kerakli jixozlar:</b> ZO Efantom, xomilador ayol, santimetrli o'lchagich</p> <p><b>4. Qadamlar:</b></p> <p>Ayolni chalqanchasiga yotoqqa yotqiziladi</p> <p>shifokor ayolni yonida yuzi bilan ayol qorniga qaragan xolatda bo'ladi</p> <p>Santimetrli tasma yordamida qorin aylanasi aniqlanadi</p> <p>Santimetrli tasma bilan ayolni oldindan kindik sohasida, orqadan bel sohasini o'rtasidan aylantirib qorin aylanasi o'lchanadi.</p> <p>Homiladorlik oxirida bu o'lcham 100 smga teng</p>   |

|    |   |
|----|---|
|    | <p>Santimetrli tasma yordamida bachadon tubi va balandligi aniqlanadi</p> <p>Bachadon tubi balandligini o'lash uchun, tasma bir uchini qov ravog'i yuqori qirrasini o'rtasiga qo'l bilan qo'yib, bachadon tubi yuqori chegarasigacha aniqlanadi</p> <p>bachadon tubi ikkinchi qo'lni kaft qirrasini bilan aniqlanadi.<br/>Homiladorlik oxirida bu ulcham 32 sm ga teng</p> <p>Qorin aylanasi ulchamini bachadon tubi balandligiga ko'paytirib homilaning taxminiy vaznini aniqlaymiz. <math>100 \times 32 = 3200</math> gr</p>  |
| 4. | <p><b>Kindikni kesish va artib tozalash:</b></p> <p><b>1. <u>Sinamani o'tkazishdan maqsad:</u></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• chaqaloqlar kindigini kesish</li> <li>• yiringli septik asoratlarni oldini olish</li> </ul> <p><b>2. <u>Kerakli jixozlar:</u></b> fantom-kugirchok, kulkop, paxta, Koxer kiskichlari (3), qaychi, Rogovin skobasi, 76% spirtli eritma va salfetka.</p> <p><b>3. <u>Qadamlar :</u></b></p> <p>Kindikni artib tozalash ikki boskichda olib boriladi.</p> <p>Chaqaloq tug'algach kindik xalkasidan 10-12 sm uzoqlikdan ushlanadi va spirtli paxta biln artiladi. Spirtlab artilgan soxaning yukorisiga qisqich qo'yiladi. Kuyilgan kiskichdan 2 sm pastga siljib, yana bitta kiskich kuyiladi.</p> <p>Kisqichlar orasida kindik tizimchasi kesiladi. Chaqaloqni onasidan ajratiladi va yurgaklash stoliga olib utiladi</p> <p>Kindikni kesishning ikkinchi boskichi: Qo'lni oqib turgan suvda sovunlab yuviladi. Qulni antiseptik eritma bilan artiladi. Kindik qoldig'ini ko'rsatkich va o'rta barmoqlar orasiga olinib siqiladi Kindik xalkasidan 1,5 sm yukoriga Rogovin qisqichi qo'yiladi. Qisqich bo'lmaganda maxkam qilib ipak ip bilan boylanadi Kiskichdan 1,5 sm tashab steril kaychi bilan kindik kesib tashlanadi</p> <p>Kindik qoldig'ini 76% li spirt bilan artiladi Chaqaloqni bo'limga o'tkazishdan oldin, kindik maxkam boylanganligi tekshirib ko'riladi</p> |
| 5. | <p><b>Apgar shkalasida chaqaloqlar ahvolini baholash:</b></p> <p><b>1. <u>Maksad:</u></b>Chaqaloqning axvolini baxolash</p> <p><b>2. <u>Ko'rsatma:</u></b> Erta chilla davrida chaqaloqning xolatini</p> <p><b>3. <u>Kerakli jixozlar:</u></b> Chaqaloq (fantom)</p> <p><b>4. <u>Qadamlar:</u></b></p> <p>Ahvolini baholashni tug'ilgan zaxoti birinchi daqiqasida va beshinchi daqiqasidan so'ng utkaziladi. 5ta belgi buyicha baxolanadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) yurak urishi</li> <li>2) nafas olishi</li> <li>3) reflekslar</li> <li>4) mushaklar tonusi</li> <li>5) teri rangi</li> </ol>   |

|    |  |
|----|--|
|    | <p>Har bir belgi 3 balli sistemada baholanadi: 0,1, va 2 ball<br/> Hammasi jamlananadi. Ikkita ball ko'rsatiladi<br/> Yig'ilgan ballga asosan chaqaloq ahvoli belgilanadi<br/> 10 -7 ball bilan baholansa sog'lom tug'ilgan bolalar<br/> 6- 5 ballda engil asfiksiyada tug'ilgan<br/> 4-5 ballda o'rta asfiksiyada tug'ilgan<br/> 1-3 ballda og'ir asfiksiya<br/> Klinik o'limda tug'ilgan chaqaloqlarda 0 ball</p>  |
| 6. | <p><b>Tug'ruqning Sh davrini faol olib borish:</b><br/> <b>1. Maqsad:</b> tug'ruqning uchinchi davrini faol olib borish<br/> <b>2. Ko'rsatma:</b> Yo'ldosh davri<br/> <b>3. Kerakli jixozlar:</b> ZOEFantom, yo'ldosh mulyaji, Koxer kiskichi, qaychilar, oksitotsin 2 ampula, shpris 5gr<br/> <b>4. Qadamlar:</b><br/> Tug'uvchi ayolni ogoxlantirish.<br/> Muolaja tug'ruq zalida, tug'ruqning uchinchi davrida o'tkaziladi<br/> Xomila tug'ilishi bilanoq, bachadonda yana xomila yo'qligiga aminlik xosil kilish kerak<br/> Son yoki dumdaning mushak orasiga 2,0ml Oksitotsin (10 TB) yuboriladi.<br/> Kindik tizimchasiga ikkita Koxer qisqichi qo'yiladi<br/> Zajimlar orasi qaychi yordamida kesiladi<br/> Chaqaloq ajratiladi<br/> Kindik tizimchasidan extiyotkorona, bimanual tortib ko'riladi.<br/> Bir vaqtning o'zida o'ng qo'l bilan kindik tizimchasidan tortiladi va chap qo'l bilan bachadonga qov usti soxasidan qarshi bosim bilan itariladi va bachadon xolati nazorat qilinadi<br/> Yo'ldosh ajralishi sodir bo'lmasa, yo'ldoshni qo'l bilan ajratish amaliyoti amalga oshiriladi.</p> |
| 7. | <p><b>Yo'ldosh butunligini aniqlash:</b><br/> <b>1. Maksad:</b>tug'rukdan keyingi qon ketishning oldini olish<br/> <b>2. Ko'rsatma:</b> Erta chilla davri<br/> <b>3. Kerakli jixozlar:</b> ZOE, Noele fantomlari, xomila yo'ldoshi<br/> <b>4. Qadamlar:</b><br/> Yo'ldoshni ona yuzasini tepaga qaratib idishga qo'yib diqqat bilan qarab chiqiladi, so'ng pardalari ko'rib chiqiladi.<br/> Butun yo'ldoshda yuzasi tekis , yaltiroq bo'lakchali, strukturali bo'ladi.<br/> «Cho'qilgan » xamda bo'lakchasi yo'q chukurchalar topilsa, yo'ldosh qismlari qolib ketgan deb shubxa qilinadi.<br/> Yo'ldoshni ko'rganda uning butunligi , pardalarini yorilgan joyi aniqlanadi.<br/> Qog'onoq pardalarida qon tomirlari yo'nalishi qo'shimcha bo'lak bor yo'qligini aniqlash uchun qo'riladi. Agar tomirlar oxirida yo'ldosh bo'lagi bo'lmasa, u bachadonda qolib ketgan bo'ladi.<br/> Qog'onoq pardalari etishmasa, ular bachadon bo'shlig'ida qolib ketgan deb hisoblanadi.</p>   |

|    |   |
|----|---|
| 8. | <p><b>Qorin aortasini bosish:</b></p> <p><b>1. Maksud:</b> Tugʻrukdan keyingi erta chilla va chilla davridagi gipotonik qon ketishni toʻxtatish</p> <p><b>2. Koʻrsatma:</b> tugʻrukdan keyingi gipotonik qon ketishi</p> <p><b>3. Kerakli jixozlar:</b> ZOE, Noele fantomlari, tuqqan ayol</p> <p><b>4. Qadamlar:</b><br/> Qoʻlni qisib musht qilib, kindikdan sal chapga va yuqoriga qoʻyamiz.<br/> Korin devori orkali korin aortasiga bevosita bosamiz.<br/> Boshqa qoʻl bilan bosish darajasini aniqlash uchun A.Femoralis(son arteryasi) da pulsni aniqlaymiz.<br/> Agar puls aniqlanmasa muolaja toʻgʻri bajarilgan xisoblanadi<br/> Qorin aortasini bosishni qon oqish toʻxtaguncha<br/> Qorin aortasini bosishni bachadon qisqarguncha davom ettiramiz.<br/> Qorin aortasini bosishni jarroxlik amaliyotiga olguncha davom ettiramiz</p>  |
| 9. | <p><b>Ogʻir preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam koʻrsatish:</b></p> <p><b>1. Maqsad:</b> preeklampsiyani oʻz vaqtida aniqlash va shoshilinch yordam koʻrsatish</p> <p><b>2. Koʻrsatma:</b> Preeklampsiya ogʻir darajasi</p> <p><b>3. Kerakli jixozlar:</b> tonometr, steril qoʻlqoplar, steril shpris 20gr, t/i infuziyasi uchun sistema, 0,9% fiziologik eritmasi, nifedipin (korinfar) 10mg tabletkalari, magniy sulfat 25% 20ml.</p> <p><b>4. Qadamlar:</b><br/> <u>Ogʻir preeklampsiya</u> belgilarini sanab oʻting:<br/> DAQB 110 mm.sim.ust. va undan yuqori boʻlishi xamda SAQB 150 mm.sim.ust va undan yuqori boʻlishi., proteinuriya 1gr/l va undan koʻp.<br/> <u>Eklampsiyaga xavf soluvchi omillar:</u> Toʻsatdan emotsional xolatini oʻzgarishi, KB toʻsatdan va juda baland koʻtarilishi, Giperrefleksiya, Kuchli bosh ogʻrigʻi (koʻpincha kuchayadi va oddiy analgetiklar yordam bermaydigan), Koʻz koʻrishini oʻzgarishi (oʻtkirlashishi yoki xiralashi), quloqda shangʻillash, koʻngil aynishi, epigastral ogʻriqlar.<br/> Xomilador ayolni tinchlantiring va qoʻllab quvvatlang, kushetkaga yotqizing, AQBni ikki marta oʻlchang, OP da tez yordam mashinasini chaqirtiring.<br/> Ayolga nifedipin 10mg tabletkasini ichiring, keyin 10 daqiqadan soʻng AQB qayta oʻlchang<br/> Ayolning talvasaga tushish xavfi kuzatilsa talvasaga qarshi davo choralari boshlanadi: 20ml (5g) 25%li magniy sulfatni 20ml 0,9%li fiziologik eritmada ikkita 20mlli shprida, tomir ichiga sekin astalik bilan 20 minut davomida yuboriladi (yuklama doza).<br/> Bemorni statsionarga shoshilinch olib borishni taʻminlang, kuzatib boring va uni qoʻllab quvvatlang.</p> |

## 4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

### 4.1. Mustaqil ta'lim mavzulari

| №                | Mustaqil ta'lim mavzulari   | Soatlar hajmi | Kompetentsiyalar    |
|------------------|---|---------------|---------------------|
| <b>2-semestr</b> |   |               |                     |
| 1                | Ayollar jinsiy a'zolari klinik anatomiyasi. Tug'ruq yo'llari.   | 2             | UK 1, UK 2, UKK 3   |
| 2                | Tug'ruq. Organizmning tug'ruqqa tayyorgarligini baholash. Tug'ruq davrlari. Tug'ruq davrlari xarakteristikasi. Birinchi va qayta tug'uvchilarda bachadon bo'yni ochilishi mexanizmi.  | 2             | UK 3, UK 4,         |
| 3                | Homilani tug'ruq ob'ekti sifatida o'rganish. Qog'onoq suvlari va homila pufagining ahamiyati. Tug'ruqni og'riqsizlantirish. Yumshoq tug'ruq yo'llarini ko'rishga ko'rsatmalar. Sheriklik tug'ruq.   | 2             | UKK 1, UKK 2,       |
| 4                | Fiziologik chilla davri. Chaqaloqlik davri. Chaqaloqlarni Apgar shkalasida baholash. Chaqaloqlarni birlamchi artib tozalash.  | 2             | UK 1, UK 4,         |
| 5                | Homilani chanog'i bilan kelishi. Homiladorlik va tug'ruqni kechishi. Tug'ruq biomexanizmi. Lovset va Moriso-Smelli-Veyta usullari.  | 2             | UKK 4, UKK 5, UKK 6 |
| 6                | Homiladorlar ko'ngil aynishi va qusishi. Etiologiyasi, tasnifi, klinikasi, davolash   | 2             | UKK2, UKK4          |
| 7                | Homiladorlikda gipertenziv sindrom, preeklampsiya, eklampsiya. Gipertenziv holatlar tasnifi. Klinikasi, tashxislash, asoratlari. Preeklampsiya va eklampsiya og'ir formalarida shoshilinch yordam ko'rsatish. Profilaktika va reabilitatsiya choralari. | 2             | UKK1, UKK5, UKK6    |
| 8                | Homiladorlikda gipertenziv sindrom, preeklampsiya, eklampsiya. Gipertenziv holatlar tasnifi. Klinikasi, tashxislash,  | 2             | UKK2, UKK3, UKK     |



|    |  |   |                   |
|----|--|---|-------------------|
|    | asoratlari. Preeklampsiya va eklampsiya og‘ir formalarida shoshilinch yordam ko‘rsatish. Profilaktika va rehabilitatsiya choralari.  |   |                   |
| 9  | Homiladorlik muddatiga etmasligi va muddatidan o‘tib ketishi to‘g‘risida tushunchalar. Etiologiyasi, klinikasi, tashxislash. Tasnifi. “Chin” va “soxta” muddatidan o‘tib ketgan homiladorlik to‘g‘risida tushunchalar. | 2 | UKK2, UKK4        |
| 10 | Qoniqarsiz tug‘ruq faoliyati. Tasnifi. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va tashxislash, davolash. Tug‘ruq va chilla davrida asoratlar. Homiladorlik va tug‘ruqni olib borish taktikasi.                             | 2 | UKK1, UKK7        |
| 11 | Tor chanoq. Etiologiyasi, tasnifi, tashxislash. Tug‘dirish usullari. Homiladorlik va tug‘ruqni kechishi. Asoratlar. Anatomik va klinik tor chanoqlarda tug‘dirish usullari.  | 2 | UKK4, UKK6, UKK7  |
| 12 | Homila boshi va ona chanog‘i disproporsiyasi. Funktsional tor chanoqni kelib chiqish sabablari. Ona va bola uchun asoratlar. Yelkalar distotsiyasi, tashxislash, akusherlik yordam usullari.                           | 2 | UKK1, UKK 5, UKK6 |
| 13 | Homilani noto‘g‘ri holati. Tashxislash, ona va bola uchun asoratlar, ularning oldini olish. Homilani noto‘g‘ri holati, tushuncha, etiologiyasi, tashxislash.   | 2 | UKK1, UKK6        |
| 14 | Tug‘ruqni amalga oshiruvchi operatsiyalar: kesar kesish, homila vakuum-ekstraksiyasi, akusherlik qisqichlari, homilani chanog‘idan tortib tug‘dirish.  | 2 | UKK2, UKK 4, UKK6 |
| 15 | HELLP-sindrom, tug‘ruqda qon ketishlar, dissimienirlashgan tomir ichida qon ivish sindromi (DTQIS)   | 2 | UKK1, UKK 5, UKK7 |

|              |   |                |                   |
|--------------|---|----------------|-------------------|
| 16           | Gemorragik shok tushuncha, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, tarqalish yo‘llari, klinikasi, tashxislash, davolash prinsiplari, oldini olish.             | 2              | UKK1, UKK 3, UKK4 |
| 17           | Chilla davri infeksiyalari. Tushuncha, etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, tarqalish yo‘llari, klinikasi, tashxislash, davolash prinsiplari, oldini olish. | 2              | UKK1, UKK 4, UKK6 |
| 18           | Akusherlik peritoniti. Akusherlik peritonitining, xirurgik peritonitidan farqi. Laktostaz. Mastit.  | 2              | UKK2, UKK 5, UKK6 |
| <b>Jami:</b> |   | <b>36 soat</b> |                   |

Mustaqil ta’lim mavzulari talabalar tomonidan auditoriyadan tashqari o‘zlashtiriladi va mavzuga oid joriy baholashda inobatga olinadi. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi. Fiziologiya moduli bo‘yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

#### ***4.2. Modul bo‘yicha mustaqil ta’lim shakllari va ishlar turlari ro‘yhat:***

moduli bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o‘quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira bilan ishtirok etish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma’ruzalarni o‘tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;

- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayarlash;

- modulning bo‘limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar

(monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish.

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

**4.3. Modul bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish uchun tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy ta'minot:** qo'llanmalar, adabiyot, fotosuratlar, fantom, mulyaj, simulyatorlar, asbob-anjom, jadvallar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, kompyuter dasturlari, klinik modullar uchun kechki navbatchiliklar, volontyorlik, simulyatsion markazlarda ishlash va h.k.

**Modul bo'yicha kurs ishi (loyihasi).** Modul bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

#### **5. Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baxolash mezonlari**

Fiziologiya moduli bo'yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarining modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YaN);

#### **JORIY NAZORAT (JN)**

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetentsiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Fiziologiya moduli moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Nazoratda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetentsiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazoratda talabalar bilimi ta'lim modeliga asoslangan xolda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50:50).

Joriy nazorat uchun 3,0 kredit ajratiladi:

3 semestr – 3,0 kredit

JN – 3,0 kredit;

YaN – 0 kredit (o'tilishi majburiy).

Talaba 3 semestrda belgilangan kreditlarni to'plaganidan keyin semestr

yakunida sinovli vazifani topshiradi va o'tish (saralash) balidan o'tsa va talaba 3 semestrda belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida Yakuniy nazoratga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan yoki uzrli sabablarga ko'ra joriy nazoratda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi semestr tugaguncha bo'lgan muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga 3-semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

### ***5.1. Modul bo'yicha talabalarda nazariy bilimni nazorat qilish va baholash mezonlari shakllari va nazorat turlari bo'yicha JN, ON, YaN)***

|                    |   |
|--------------------|---|
| Baholash usullari  | Tezkor testlar, yozma ish, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar |
| Baholash mezonlari | Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball                      |

\* Amaliy kko'nikma ko'zda tutilmagan modullarda nazariy bilimni baholash 100 ballni tashkil etadi.

### ***5.2. Modul bo'yicha talabalarda amaliy ko'nikmalarni egallashni nazorat qilish va bilimni baholash mezonlari***

| Ball   | ECTS baho | ECTS ning ta'rifi                               |  | Baho | Ta'rif |
|--------|-----------|---|--|------|--------|
| 86-100 | A         | "a'lo" – a'lo natija, minimal hatolik-lar bilan | modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; | 5    | a'lo   |

|       |   |   |   |   |        |
|-------|---|---|---|---|--------|
|       |   |   | <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>  |   |        |
| 81-85 | B | "juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatolik-lar bilan | <p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol</p> | 4 | yaxshi |

|       |   |   |  |   |           |
|-------|---|---|--|---|-----------|
|       |   |   | bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;  |   |           |
| 71-80 | C | "yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatolik-lar bilan | <p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p> |   |           |
| 60-70 | D | "qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan    | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetentsiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar</p>   | 3 | Qoniqarli |

|       |    |  |   |   |            |
|-------|----|--|---|---|------------|
|       |    |  | <p>bilan egallashi;<br/> modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;<br/> pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;<br/> o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;<br/> nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>   |   |            |
| 55-59 | E  | "o'rta" – minimal natijaga teng  | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;<br/> terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;<br/> javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;<br/> amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;<br/> kompetentsiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;<br/> modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;<br/> pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;<br/> o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;<br/> nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p> |   |            |
| 31-54 | FX | "qoniqarsiz" – minimal daraja-dagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtiris | <p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;<br/> ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;<br/> nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;<br/> amaliy ko'nikmalarga va kompetentsiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay</p>   | 2 | Qoniqarsiz |

|      |   |  |   |  |  |
|------|---|--|---|--|--|
|      |   | hi zarur   | olmasa.   |  |  |
| 0-30 | F | "mutloq qoniqar-siz" – to'liq qayta o'zlashtirishi lozim | davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetentsiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa. |  |  |

### YAKUNIY NAZORAT (YaN)

YaNda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baxolanadi. YaN fiziologiya moduli bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng, test markazida test sinovi shaklida o'tkaziladi.

Modul bo'yicha JNga berilgan kreditlarni to'plagan va ONdan o'tgan talabaga YaNda ishtirok etish huquqi beriladi. YaN bitta javobli va ko'p javobli, mutanosiblik va ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan test savollaridan iborat bo'ladi. YaNda saralash balini (55 ball) yig'a olmagan talaba YaNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.



Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

### ***5.3. Modul bo'yicha talabalarda kompetentsiyalarni egallashni nazorat qilish va baholash mezonlari***

| Baholash shkalasi                      | Bayoni   |
|--|--|
| Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball | Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. |

## ***6.Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari ro'yhati***

### ***6.1. Asosiy adabiyotlar:***

1. Jabbarova Y.Q., Ayupova F.M. "Akusherlik". Darslik. - Toshkent "Mexridaryo" nashriyoti. 2013y.
2. Ayupova F.M., Jabbarova Y.Q. "Ginekologiya". Darslik. - Toshkent. "Mexridaryo" nashriyoti. 2015 y.  
Najmutdinova D.K., Yuldasheva D.Yu., Sadikova D.R., Shodieva X.T. "Akusherlik va ginekologiyadagi innovatsion amaliyotlar". O'quv qo'llanma. -Tashkent. "RIO TMA" nashriyoti. 2019 y.

### ***6.2. Qo'shimcha adabiyotlar:***

1. Под редакцией В.Е. Радзинского и А.М. Фукса. «Акушерство». Учебник. - Москва. ГОЕТАР-Медиа. 2016 г.
2. Под редакцией В.Е. Радзинского и А.М. Фукса. «Гинекология». Учебник. - Москва. ГОЕТАР-Медиа. 2014 г.
3. Стандарт антенатального ухода и оказания медитсинской помощи беременным в учреждениях первичной медико санитарной помощи. Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан. УНФПА. 2016г.
4. Шехтман М.М. «Екстрагениталная патология и беременность». Учебник. - Москва. Медитсина. 2005 г.

5. Под редакцией Г.М. Савелевой. «Гинекология». Учебник. -Москва. Медицина. 2009 г.
6. Нажмутдинова Д.К. и соавт. “Передовые практики в акушерстве и гинекологии”. Практическое руководство. - Ташкент. Бактрияпресс. 2017 г.
7. Медицинские критерии приемлимости для использования методов контрацепции. 5-е издание. УНФПА. 2015 г.
8. Клиническое руководство по ведению больных с кровотечениями в родах и послеродовом периоде. - Ташкент. УНФПА 2008 г.
9. Клиническое руководство по ведению больных с сепсисом септическим шоком во время беременности и послеродовом периоде. - Ташкент. УНФПА. 2008 г.
10. Клиническое руководство по ведению больных с гипертензивным синдромом при беременности. - Ташкент. УНФПА 2008г.
11. Эффективная перинатальная помощь и уход. Руководство ВОЗ. УНФПА 2007г.
12. Тепловая защита новорожденного. Практическое руководство ВОЗ. УНФПА 2007г.
13. Неонатология. Руководство ВОЗ. УНФПА 2007г.
14. Акушерство. Руководство ВОЗ. УНФПА 2007г.
15. Краткое руководство по профилактике инфекции. Первое издание. - Ташкент. 2004 г.

### **6.3. Internet saytlari:**

1. [www.tma.uz](http://www.tma.uz)
2. [www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz)
3. [www.medi.ru](http://www.medi.ru)